



**PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV METODIKASI: MAZMUNI A SAMARADORLIK
DARAJASI**
**ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ОПЫТНО-ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ МЕТОДИКА:
СОДЕРЖАНИЕ И УРОВЕНЬ ЭФФЕКТИВНОСТИ**
**PEDAGOGICAL EXPERIMENTAL-TESTING METHODOLOGY: CONTENT AND
EFFECTIVENESS LEVEL**

Sadaddinova Nodira Erkinovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Turizm fakulteti Lingvistika va ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrası

2- kurs magistranti sadaddinovanodira99@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogik tajriba-sinov metodikasining nazariy mazmuni, uni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning ilmiy-amaliy asoslari hamda tajriba jarayonida qo'llaniladigan metodlar tizimi yoritiladi. Pedagogik tajribaning bosqichlari — diagnostika, amaliy joriy etish va yakuniy monitoring — har birining mazmuni va vazifalari bilan birga ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasini aniqlashda qo'llaniladigan mezonlar, statistik tahlil usullari, o'quvchilarning bilim, kompetensiya va motivatsiya ko'rsatkichlari orqali olingan natijalarni baholash tamoyillari tahlil etiladi. Maqolada tajriba davomida qo'llangan innovatsion pedagogik texnologiyalar, ularning ta'lim sifatiga ta'siri, shuningdek, o'quv jarayonini takomillashtirishdagi amaliy ahamiyati haqida ham ma'lumot beriladi. Tadqiqot yakunlari pedagogik yangiliklarning samaradorligini asoslashga, ularni keng ko'lamda qo'llash imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *pedagogik tajriba, tajriba-sinov metodikasi, samaradorlik, pedagogik texnologiyalar, diagnostika, monitoring, o'quv jarayoni.*

**МЕТОДИКА ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОГО ИСПЫТАНИЯ:
СОДЕРЖАНИЕ И УРОВЕНЬ ЭФФЕКТИВНОСТИ**

Аннотация. *В данной статье рассматриваются особенности перевода политических текстов, их социально-политические аспекты, а также такие важные для переводчика качества, как объективность, логичность и связность. Подчеркивается необходимость соблюдения этих требований в любой ситуации и недопустимость субъективного подхода в процессе политического перевода. Раскрывается важность умения определять сходства и различия между языком оригинала и переводным языком, учитывать культурные элементы различных языков и обладать достаточными знаниями об эквивалентности в переводческом процессе. Кроме того, приводятся сведения о различных методах и приёмах, применяемых при переводе политических текстов, их практическом значении, области использования, ситуациях применения метода адаптации,*



выборе правильного порядка слов, методе сопоставления и политической терминологии. Также рассматривается тот факт, что в современную практику перевода всё чаще входят не отдельные лексические единицы или термины, а цельные словосочетания и, точнее, фразеологизмы, что требует от переводчика политической сферы внимательного наблюдения, изучения и практического применения.

Ключевые слова: терминология, политическая речь, методы перевода, логичность, адаптация, сопоставительный метод.

PEDAGOGICAL EXPERIMENTAL TEST METHODOLOGY: CONTENT AND LEVEL OF EFFECTIVENESS

Abstract. *This article discusses the specific features of political text translation, its socio-political aspects, and the key qualities required of a translator, such as objectivity, logical consistency, and coherence. It emphasizes the necessity for translators to follow these principles in all situations and avoid subjective approaches during the political translation process. The article highlights the importance of identifying similarities and differences between the source and target languages, paying attention to cultural elements of different languages, and possessing sufficient knowledge of equivalence in translation. Additionally, it provides information on various methods and techniques used in translating political texts, their practical significance, scope of application, situations that require the use of adaptation, proper word order selection, comparative methods, and political terminology. The article also addresses the growing tendency for whole expressions and, more specifically, idioms—rather than individual lexical units or terms—to enter various languages, and stresses that translators in the political field must carefully observe, study, and apply these elements in practice.*

Keywords: *terminology, political discourse, translation methods, logical consistency, adaptation, comparative method.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy ta'lim tizimida o'quv jarayonini takomillashtirish, pedagogik jarayonning sifat va samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlar, texnologiyalar va yondashuvlarning amalda qanchalik samarali ekanligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Pedagogik tajriba-sinov metodikasi aynan ushbu ehtiyojdan kelib chiqib shakllangan bo'lib, o'quv faoliyatiga yangi metodik yechimlarni ilmiy asosda tatbiq etish, ularning natijadorlik darajasini aniqlash va takomillashtirish imkonini beradi. Bugungi kunda ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida pedagogik tajriba-sinov metodikasining ahamiyati yanada ortib bormoqda, chunki u yangi pedagogik innovatsiyalarni baholashning eng ishonchli vositasi hisoblanadi.

Mazkur maqolada pedagogik tajriba-sinov metodikasining mazmuni, uning bosqichlari, tadqiqot jarayonidagi ilmiy yondashuvlar hamda samaradorlikni aniqlash



mezonlari yoritiladi. Shuningdek, metodikaning amaliyotda qo'llanishi va ta'lim sifatiga ta'siri misollar asosida ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Pedagogik tajriba-sinov metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ushbu jarayonning ilmiy-metodik asoslari, eksperimental ishlarni tashkil etish bosqichlari, diagnostika vositalaridan foydalanish hamda o'quv jarayoniga yangiliklarni joriy etish mexanizmlari keng yoritilgan. Xususan, A.Usmonboyeva, B.Ziyomammedov, R.Qodirov, M.Quronovlarning pedagogik tajriba metodlariga bag'ishlangan ishlari mazkur yo'nalishning nazariy asoslarini aniqlashda muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni joriy etish jarayonida tajriba-sinov ishlarining tutgan o'rnini yoritgan J.Dewey, L.Vygotskiy, D.Kolb kabi xorijlik olimlarning konseptual yondashuvlari ham mazkur mavzuga doir muhim nazariy asoslarni beradi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar ichida A.Qodirov, O.To'raqulov, N.G'aniyevalarning eksperimental ta'lim, ta'lim texnologiyalarini baholash, o'quvchilar kompetensiyalarining shakllanishini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlari tajriba-sinov metodikasining mazmunini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning izlanishlarida yosh xususiyatlari, o'quvchilar tayyorgarlik darajasi, o'qituvchining metodik mahorati tajriba natijalariga bevosita ta'sir etuvchi omillar sifatida ko'rsatilgan. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini samarali tashkil etish uchun o'quv jarayonining psixologik-pedagogik asoslarini chuqur bilish talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, L.S.Vygotskiy, P.Ya.Galperin, A.N.Leontyevlarning faoliyat nazariyasi va bosqichma-bosqich o'qitish metodikasi bo'yicha ishlari eksperimental faoliyatda qo'llaniladigan asosiy metodik yondashuv sifatida xizmat qiladi.

Ko'rib chiqilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik tajriba-sinov metodikasi murakkab, ko'p bosqichli va ilmiy asoslashni talab qiladigan jarayon bo'lib, har bir bosqichda aniqlik, tizimlilik va metodik izchillik muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Pedagogik tajriba-sinov jarayonini tashkil etishda tadqiqotchi eng avvalo tajribaning maqsadi, vazifalari va kutilayotgan natijalarini aniq belgilab olishi zarur. Tajriba-sinov metodikasi o'quv jarayonida qo'llanilayotgan yangi pedagogik texnologiya, metod yoki yondashuvning real samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, bu jarayon ilmiy izlanishning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Birinchi bosqichda tajriba o'tkaziladigan guruhlar aniqlanadi: tajriba guruhi (yangi metod qo'llaniladi) va nazorat guruhi (an'anaviy metod asosida o'qitiladi). Guruhlarni tanlashda ularning bilim darajasi, yosh xususiyatlari, o'quv muhiti bir-biriga maksimal darajada mos bo'lishi talab etiladi. Chunki bu tajriba natijalarining obyektivligini ta'minlaydi.



Ikkinchi bosqichda o'quv dasturi, topshiriqlar, baholash mezonlari, metodik materiallar ishlab chiqiladi. Tajriba-sinov jarayonida o'qituvchi nafaqat o'quv natijalarini, balki talabalar faolligi, motivatsiyasi, mustaqil ishlash qobiliyati va kompetensiyalarini ham kuzatib boradi. Shuningdek, jarayon davomida diagnostika, kuzatuv, suhbat, test sinovlari, monitoring kabi metodlardan foydalaniladi.

Uchinchi bosqichda tajriba metodikasining real samaradorligi baholanadi. Buning uchun tajriba va nazorat guruhlarini ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslanadi, statistik tahlillar amalga oshiriladi. Agar tajriba guruhi natijalari sezilarli darajada yuqori bo'lsa, metodikaning samarali ekanligi ilmiy asoslanadi. Pedagogik tajriba-sinov natijalarini talqin qilish jarayonida tadqiqotchi obyektivlik tamoyiliga qat'iy amal qilishi kerak. Subyektiv yondashuv, ortiqcha umumlashtirish yoki shaxsiy fikrlarni ilmiy natija sifatida berish to'g'ri emas. Shuning uchun har bir xulosa aniq faktlar, kuzatuvlar va o'lchov natijalariga tayangan bo'lishi lozim.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Pedagogik tajriba-sinov metodikasi ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan yangi usullar, texnologiyalar va metodik yondashuvlarning haqiqiy samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida tajriba guruhlarini va nazorat guruhlarini o'rtasida o'quv faoliyati ko'rsatkichlari solishtirildi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalaridagi o'zgarishlar muntazam kuzatib borildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba asosida qo'llangan innovatsion metodlar o'quvchilarning bilish faolligini sezilarli darajada oshiradi.

Pedagogik tajribaning muhim jihatlari biri – o'quvchilar faoliyatidagi sifat o'zgarishlarini aniqlashdir. Xususan, tajriba davomida o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasi, muammoli vaziyatlarga yondashuvi, ijodiy faolligi va kommunikativ qobiliyatlarida ijobiy ko'rsatkichlar kuzatilgan. Bu o'zgarishlar qo'llangan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tajriba natijalarini tahlil qilish jarayonida an'anaviy ta'lim usullaridan foydalanilgan nazorat guruhida rivojlanish sur'ati barqaror bo'lsa-da, tajriba guruhida o'quv dinamikasining yuqoriligi yaqqol sezildi. Pedagogik tajriba-sinovning yana bir muhim xulosasi shundan iboratki, ta'lim jarayonining samaradorligi faqat qo'llangan metodga emas, balki o'qituvchining metodik mahorati, dars jarayonini boshqarish qobiliyati va innovatsion yondashuvlardan oqilona foydalanishiga ham bog'liq. O'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilgan o'quv jarayoni tajribaning natijalarida yuqori samaradorlik ko'rsatkichlarini ta'minladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, masofaviy ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Masofaviy o'qitish jarayonida qo'llaniladigan platformalar, interaktiv topshiriqlar, multimedia resurslari va raqamli lug'atlar leksik bilimlarni



mustahkamlash, ularni amaliy qo'llash va nutq jarayoniga tatbiq etishda katta imkoniyat yaratadi. Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, to'g'ri tanlangan metodik yondashuvlar talabalar faolligini oshiradi, mustaqil izlanishni kuchaytiradi va leksik birliklarni o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada yuksaltiradi.

Masofaviy ta'lim sharoitida leksik kompetensiyani rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bu — interaktivlik, talabaning faol ishtiroki va uzluksiz teskari aloqadir. Shuningdek, zamonaviy elektron platformalardan foydalanish ingliz tili leksikasini kontekstual, kommunikativ va situativ yondashuvlar asosida o'rgatish imkonini beradi.

Umuman olganda, masofaviy ta'lim texnologiyalari talabalarning leksik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, mazkur yo'nalishda metodik izlanishlar samaradorlikni yanada oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida bu boradagi tadqiqot va tajribalar ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishga, til o'rganuvchilarning leksik salohiyatini yuqori darajaga ko'tarishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

- 1.**To'raqulov X.** Pedagogik tajriba-sinovning nazariy asoslari va uni tashkil etish bosqichlari. – Toshkent, 2018. – B. 21–25.
- 2.**Yo'ldosheva S.** Innovative approaches in pedagogical experiment methodology // *Journal of Education and Practice*. – 2020. – P. 54–57.
- 3.**Richards J., Rodgers T.** Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – P. 188–190.
- 4.**Hasanov B.** Masofaviy ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayoniga ta'siri // *Oliy ta'lim muammolari*. – 2019. – №3. – B. 12–14.
- 5.**Anderson M.** Experimental Methods in Education Research: Principles and Applications. – London: Routledge, 2017. – P. 75–80.
- 6.**Niyozov A.** Pedagogik innovatsiyalar va tajriba-sinov metodlari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 156 b.
- 7.**Brown H. D.** Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2015. – 312 p.
- 8.**Murodova D.** Masofaviy ta'limda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi // *Pedagogika va psixologiya jurnali*. – 2021. – №2. – B. 45–49.
- 9.**Cohen L., Manion L., Morrison K.** Research Methods in Education. – London: Routledge, 2018. – 584 p.
- 10.**Qodirova M.** Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning tajriba-sinov asoslari. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2019. – 138 b.